



## INGLIZ TILIDA «E/E» UNLI HARFINING FONETIK JIHATDAN TO'LIQ TASNIFI

**Maxmudova Nargiza Soat qizi**

*Alfraganus Universiteti Filologiya fakulteti ingliz filologiyasi yo'nalishi talabasi  
nanizng@mail.ru*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilidagi «E/e» harfining fonetik jihatdan to'liq tasnifi ko'rsatib o'tilgan. O'quv jarayonidagi «E/e» harfini noto'g'ri talaffuz qilinishi bilan yuzaga keladigan muammolar va ularga yechim berilgan. «E/e» harfining talaffuzida istisno tariqasida boshqacha talaffuz qilinadigan so'zlar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** fonetika, «E/e» harfi, talaffuz, urg'u, bo'g'in, Silent E, Magic E, diftong, monoftong, schwa.

**Abstract:** This article provides a complete phonetic description of the English letter "E/e". It discusses the problems that arise from the incorrect pronunciation of the letter "E/e" during the learning process and offers solutions to these issues. The article also presents information about words in which the pronunciation of "E/e" differs as an exception.

**Key words:** phonetics, the letter "E/e", pronunciation, stress, syllable, Silent E, Magic E, diphthong, monophthong, schwa.

**Абстрактный:** В данной статье приведена полная фонетическая характеристика английской буквы «E/e». Рассмотрены проблемы, возникающие из-за неправильного произношения буквы «E/e» в процессе обучения, и предлагаются их решения. Также приведена информация о словах, в которых буква «E/e» произносится иначе, чем обычно, в качестве исключения.

**Ключевые слова:** фонетика, буква «E/e», произношение, ударение, слог, Silent E, Magic E, дифтонг, монофтонг, schwa.

Ingliz tilidagi «E/e» harfi unlilar orasidagi ikkinchi harf sanaladi. Bu harf ingliz tilidagi so'zlarda eng ko'p uchraydigan harf, taxminan 13%-14% ingliz adabiyotlari shu harfdan iborat va bu sonlar shuni ko'rsatadiki "E" harfining barcha tallaffuz qoidalarini yaxshi o'zlashtirgan o'quvchi, so'zlarni ko'proq to'g'ri talaffuz qilishga erishadi. Talaffuz jihatidan ham eng ko'p tovushlar aynan "E" harfiga tegishli. Talaffuz jarayonida duch kelinadigan muammolarni bartaraf qilish maqsadida "E" harfining barcha o'qilish qoidalarini birma bir ko'rib chiqamiz. Quyida "E" harfini to'g'ri o'qish qoidalari haqida M.T. Irisqulovning «English phonetics» kitobidan jadval keltirib o'tamiz:[1,22]

	Stressed open syllable	[i:]	be, he, me, see, meter, Peter
	Stressed close syllable	[e]	best, next, left, smell
	Stressed syllable before r	[ɜ:]	her, term, verse
	Stressed syllable before re	[ɪə]	here, mere, severe
	Unstressed syllable	[ɪ]	begin, return, because, between



E e	Unstressed syllable before r	[ə]	mother, father, corner, over
	ee, ea	[i:]	green, seem, sea, clean
	ea + d	[e]	bread, head, already
	ei + gh	[ei]	eight, weight
	ew	[ju:] [u:]	few, new, grew, blew
	ey	[ei]	grey, obey
	ee, ea + r	[ɪə]	deer, dear, hear, appear
	ear + consonant	[ɜ:]	learn, earth, early

“E/e” harfi umumiy hisobda 11 ta tovush bilan talaffuz qilinadi, bulardan 4 tasi diftong tovushlar, 7 tasi monoftong tovushlardir. “E” harfida yana bir o’ziga hos muhum jihat bor, bu uning yozilsada umuman o’qilmasligi, lekin yonidagi boshqa harflarga ta’sir qilib, ularning talaffuzini o’zgartirishidir. Bu “E” harfining o’zi talaffuz qilinmasa ham boshqa harflarni talaffuzini o’zgartirish vazifasini ko’rsatadi. Bu turdagи “E” harfi ingliz tilida “SILENT E” deb yuritiladi. “E” harfining barcha talaffuz qoidalarini birma bir yoritib o’tamiz. Yuqorida aytilgandek “E” harfi 4 ta diftong tovushlar bilan talaffuz qilinadi, bular:

[ iə ei ai eə ]

“E/e” harfi [iə] tovushi bilan talaffuz qilinadigan holatlar 5 ta va bular:

1. ee, ea + r harflar so’zda shunday ketma ketlikda joylashsa [iə] tovushi bilan talaffuz qilinadi, masalan: near [niə]. Bu so’zda “ea” harfli birikmasidan kegin “r” harfi kelgan, shuning uchun [iə] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Bunday so’zlarga yana bir qancha misollar keltirib o’tamiz: fear, year. Lekin bazi so’zlarda “ea” harfli birikmasi ketidan “r” harfi kelmasa ham [iə] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Bunday hollarda “ea” bor bo’g’in urg’u olgan bo’ladi, masalan: really ['riəli], idea [ai 'dɪə].

“ee” harfli birikmasidan keyin ham “r” harfi kelsa [iə] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan, beer [biər] bu so’zda “ee” harfli birikmadan kegin “r” harfi kelgani uchun [iə] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Bunday so’zlarga bir qancha misollar keltirib o’tamiz: career, engineer, cheer

2. er + unli harf agar so’zda “er” harfli birikmasidan so’ng “e” harfidan tashqari boshqa unli harflar kelsa [iə] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan, hero ['hiərəʊ]. Bu so’zda “er” harflaridan kegin “o” unli harfi kelgan shuning uchun [iə] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Bunday so’zlarga bir qancha misollar keltirib o’tamiz: Algeria, serious, era

3. ei, eo harfli birikmalar ham bazida [iə] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Bunday so’zlar juda kam uchraydi, lekin bularni ham bilib qo’ymoq bexato talaffuz qilishga as qotadi. Masalan: weird ['wɪəd], theory ['θiəri]

4. Urg’u olgan bo’g’indan keyin “re” harfli birikmasi kelsa [iə] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan, atmosphere ['ætməsfiə]. Bu qoidaga “Silence E” harfining o’zidan oldingi unli harflarni o’zgartira olish xususiyati qoidasi ham to’g’ri keladi. Bu haqida batafsil maqola so’ngida ma’lumot berib o’tamiz.



“E” harfining keyingi talaffuz tovushi bu [ei] diftongi. Bu diftong 3 xil holatda talaffuz qilinadi:

1. ei + gh ko'rinishida so'zlarda uchrasa va bu ei harfli birikmasi urg'u olgan bo'g'in bo'lsa “E” harfi [ei] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: freight [freit]. Bundan tashqari bazi so'zlarda ei harfli birikmasidan keyin boshqa harflar kelsa ham [ei] tovushi bilan o'qilishi mumkun, lekin ei harfli birikmasi bor bo'g'in albatta urg'u olgan bo'lishi kerak. Masalan vein [vein].

2. ey harfli birikmasi so'zlarda urg'u olgan bo'g'inda [ei] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: they [ðei]. Bu so'zda ey harfli birikmasi urg'u olgan shuning uchun ham [ei] tovushi bilan talaffuz qilinyapti. Bunday so'zlarga yana misollar keltiramiz: prey, hey.

3. Ingliz tiliga boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlarda ham “E” harfi [ei] tovushi bilan talaffuz qilinadi, lekin bunday so'zlar juda kam uchraydi va “E” harfining ustiga belgi ham qo'yiladi. Masalan: café [kafei], pâté [patei]

“E” harfining 3-diftong tovushi bu [ai]. Bu tovushni talaffuz qilinadigan o'rirlari biroz chalg'ituvchi xususiyatga ega. Negaki bu diftongda ham ei + gh qoidasi bor. Yuqorida ko'rsatilib o'tilganidek bu qoida [ei] diftongiga tegishli edi, ammo bazi hollarda ei + gh ketma ketligi so'zlarda [ai] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: height [hait], sleight [slait].

Bundan tashqari hamma biladigan eye so'zida ham birinchi “e” harfi [ai] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Bunday so'zlarga alohida ahamiyat berib, to'g'ri talaffuzini yodlab olgan maq'ul.

“E” harfining 4-diftong tovushi bu [eə]. Bu tovush bilan 2 xil holatda talaffuz qilinadi:

1. ere harflar birikmasi birgalikda kelganda [eə] tovushi bilan o'qiladi. Ko'pincha bu birikma so'z oxirida kelganda shunday talaffuz qilinadi. Masalan, where [weə], there [ðeə].

2. ear harfli birikmasi bor so'zlar ham [eə] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: bear [beə], pear [peə], wear [weə].

Bundan tashqari they're va their so'zlari ham [eə] tovushi bilan talaffuz qilinadi.

Ingliz tilida “E” harfi 7 ta monoftonglar bilan talaffuz qilinadi va bular [ i: e ɜ: ɪ ju: u: a: ].

“E” harfi [i:] tovushi bilan 5 xil holatda talaffuz qilinadi, bu tovush ingliz Alphabetidagi “E” harfining nomidir.

1. “E” harfi urg'u olib ochiq bo'g'in bo'lib tugasa [i:] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: female ['fi:mɛl], secret ['si:kret]. Eng ko'p uchraydigan kishilik olmoshlari ham ana shular qatoriga kiradi: he, she, we, me. Bundan tashqari “E” harfi juda ko'p hollarda urg'u olgan bo'lsa ham [i:] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: evening ['i:vnɪŋ]. Lekin shuni ham unitish kerak emaski bu qoida hamma so'zlarga ham taaluqli emas.



2. So'z oxiri ese harflar ketligi bilan tugasa [i:] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: Japanese [dʒæpə'ni:z]. Bu so'zda ham "E" harfi urg'u olgan. Bunday so'zlarga bir qancha misollar keltiramiz: Chinese, Vietnamese.

3. Grekcha ismlar va grek tilidan ingliz tiliga o'zlashtirilgan so'zlarning ko'plik shakllarida ham "E" harfi [i:] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: Hercules ['hɜ:kjəlɪ:s], oases [ou'eɪsɪ:s]. Oases so'zining birligi oasis. Bunday so'zlarga bir qancha misollar keltiramiz: crisis-crises, thesis-theses.

4. ee, ea harfli birikmasi ham [i:] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: jeans [dʒi:nz], free [fri:]. Bunday so'zlarga bir qancha misollar keltiramiz: agree, bee, meat, teacher, reach.

5. ei, ie harfli birikmalari ham ba'zida [i:] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Bunday so'zlar ko'p emas. Masalan: protein ['prouti:n], briefcase ['bri:fkeɪs]. Bunday so'zlarga bir qancha misollar keltiramiz: piece, believe, ceiling, receipt.

"E" harfi ingliz tilida 5 xil holatda [e] tovushi bilan talaffuz qilinadi:

1. Urg'u olgan yopiq bo'g'indarda "E" harfi [e] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Qisqa so'zlar yoki so'zning oxirida kelganda ko'proq uchraydi. Masalan: get [get], met, set, bet, hotel.

2. e+undosh harf+unli harf ketma ketligi kelganda [e] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: never ['nevə], exit, ever, level.

3. e+th harflar ketma ketlikda kelganda "E" harfi [e] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: whether ['wɛðə], together.

4. ea+d harflar ketma ketlikda kelganda [e] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: head [hed], dead. Lekin ea harfli birikmasidan so'ng boshqa undosh harflar kelsa ham [e] tovushi bilan talaffuz qilinadigan so'zlar mavjud. Masalan: breakfast ['brækfəst]. Bunday so'zlarni tarjimonlardan o'rganayotganda, talaffuzlarini o'qib yodlagan maqbul yechim.

"E" harfi ingliz tilida 3 xil holatda [ə:] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Bu tovush schwa [ə] tovushining cho'ziqroq talaffuz qilinadigan shaklidir.

1. "E" harfi urg'u olgan bo'g'inda "r" harfidan oldin kelsa [ə:] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: person ['pə:sən], verb, her, were.

2. ear + undosh harf ketma ketlikda kelsa [ə:] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: earth [ə:θ], search, learn, early.

3. Fransuz tilidan ingliz tiliga o'zlashtirilgan "eur" harfli birikmasi ishtirok etgan uzun so'zlar [ə:] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: saboteur [sæbə'tə:], connoisseur, entrepreneur.

"E" harfi ingliz tilida 3 xil holatda [ɪ] tovushi bilan talaffuz qilinadi:

1. "E" harfi so'zlarda urg'u olgan bo'g'inda kelganda bazida [ɪ] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: English ['ɪŋglɪʃ], England, pretty.

2. Ikki yoki uch bo'g'indan ko'p so'zlarda "E" harfi urg'usiz holatda kelganida ham [ɪ] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: defend [dɪ'fend], believe, respect, receive, relieve.



3. t yoki d harflari bilan tugaydigan to'g'ri fe'llarga o'tgan zamonda "ed" qo'shimchasi qo'shilganda "E" harfi [ɪ] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: wanted ['wɒntɪd], needed, loaded.

"E" harfi 3 xil holatda schwa [ə] tovushi bilan talaffuz qilinadi va bu tovush hech qachon urg'u olmaydi, har qanday unli harfning talaffuzi bo'lib kelmasin, doim urg'usiz bo'ladi. Ingliz tilida schwa tovushi juda ko'p uchraydigan tovushlardandir.

1. So'zlar oxiri en yoki ent harflar birikmasi bilan tugasa "E" harfi schwa tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: parent ['pærənt], happen ['hæpən]. Bunday so'zlarga bir qancha misollar keltirib o'tamiz: moment, present, president, open, often.

2. Ingliz tilidagi eng ko'p ishlatiladigan the artikli ham [ə] tovushi bilan talaffuz qilinadi, agarda the artiklidan so'ng undosh harf bilan boshlanadigan so'z kelsa. Masalan: the boy, the house. Lekin the artiklidan so'ng unli harf bilan boshlanadigan so'z kelsa the artikli [i:] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: the apple, the orange.

3. "E" harfi urg'usiz bo'g'inda r harfidan oldin kelsa [ə] tovushi bilan talaffuz qilinadi. Masalan: brother ['brʌðər]

"E" harfi bir dona so'zda [a:] tovushi bilan talaffuz qilinadi, bu so'z: sergeant ['sa:dʒənt].

"E" harfi ew harfli birikma bo'lib kelganda [ju:] yoki [u:] tovushlari bilan talaffuz qilinadi. Masalan: few [fju:], blew [blu:]

"E" harfining yana bir o'ziga xos qoidasi bu, uning umuman o'qilmasligidir, yuqorida aytib o'tganimizdek "Silent E", lekin shu bilan bir qatorda, "E" harfi o'qilmasa ham boshqa harflarni talaffuzini o'zgartirib yuborish kuchiga ega. Ingliz tili tashuvchilari "E" harfining bu xususiyatini "Magic E" deb ham nomlashadi. Bu holat qaysi so'zlarda uchrashini ko'rib chiqamiz:

1. Ingliz tilidagi fe'llarga o'tgan zamonda ed qo'shimchasi qo'shilsa va bu fe'llar t yoki d harflariga tugamagan bo'lsa, "E" harfi umuman talaffuz qilinmaydi. Masalan: kicked [kɪkt], stayed, stopped, played.

2. Dunyodagi ko'p tillar kabi ingliz tilida ham so'zlashuv jarayonida so'zlar qisqartirilib, tilga qulay qilib talaffuz qilinadi, ayniqsa tez talaffuz qilinganda harflar tushurib qoldiriladi. "E" harfi ham ingliz tili tashuvchilari uchun talaffuz qilmaslikka qulay harfdir, shuning uchun ko'p so'zlarni tez talaffuz qilishayotganda "E" harfi tushib qoladi. Masalan: camera ['kæmrə]. Lekin bu so'zni qisqartirmay to'liq talaffuz qilish ham mumkun ['kæmərə] shaklida. Bunday so'zlarga bir qancha misollar keltiramiz: interest, different. Bunday talaffuz qilish ingliz tilida, tez va tabiiy gapirishga yordam beradi.

3. v+e ko'rinishida kelsa so'zlar "E" talaffuz qilinmaydi. Masalan: movement ['mu:vmənt], improvement.

4. some+so'z birikmasida "E" harfi talaffuz qilinmaydi. Masalan: something ['sʌmθɪŋ], someone, somewhere, somehow.

"E" harfining Magic E vazifasini ham ko'rib chiqamiz:



Bu holatda ham "E" harfi yoziladi, ammo talaffuz qilinmaydi lekin shu bilan bir qatorda o'zidan oldin kelgan harflarning talaffuzini o'zgartiradi. Masalan: car [ka:] so'ziga e harfini qo'shsak, care [keə] bo'lib talaffuzi o'zgaradi, lekin "e" harfining o'zi talaffuz qilinmaydi. Magic E ko'p hollarda birinchi bo'g'indagi unlini talaffuziga ta'sir qiladi.

Ingliz tilida ravon, bexato gapisish uchun albatta fonetik qoidalarni mukammal o'rghanmoq zarur. Ammo yuqorida ko'rib turganizdek qoidalarga bo'ysunmaydigan yoki ikki tovushning bir qoidaga bo'ysunib ammo ikki xil talaffuz qilinadigan jihatlari talaygina uchraydi. Shu sababdan faqat qoidalarni yodlab cheklanib qolmasdan, ko'proq ingliz tili tashuvchilar bilan suhbatlashib, ingliz tilida intervyular, kinolar ko'rib, musiqalar tinglab va tarjimon kitoblardan so'zlar yodlayotgan vaqtida albatta transkripsiyasiga ahamiyat berish maqsadga muvofikdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Irisqulov M.T, Shatunova A.S «ENGLISH PHONETICS». Toshkent 2011. Uzbekistan State University of World Languages